



Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-oktabr)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida Toshkent shahar korxonalaridan tomonidan 67,0 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 114,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (77,4 %) ni tashkil etdi.



Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 24,8 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 10,9 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 4,8 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 17,6 % ga o'sishi kuzatildi.

*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,7 trln. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 17,7 % ni tashkil etdi.



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning shu davriga nisbatan shagʻal 4,3 marta, chaqiq tosh 28,6 % ga, neft qazib olish 2,7 % ga, tabiiy gaz 1,7 % ga oshgan boʻlsa, gazli kondensat 2,1 % ga pasaygan.




Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2021-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Neft, ming t.	522,9	536,7	13,8
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	29 413,7	29 900,4	486,7
Gaz kondensati, ming t.	624,2	611,1	-13,1
Chaqiq tosh, ming t.	321,1	413,0	91,9
Shag'al, tonna	1 224,0	5 323,0	4 099,0




Ishlab chiqarish sanoati

2021-yilning yanvar - oktabr oylarida ishlab chiqarish sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,4 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,4 % ini tashkil etdi.

2020-yil, % da




2021-yil, % da






**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 12,4 % ni (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida 6,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali 19,9 % (25,2 %), o'rta-quyi texnologiyali 32,3 % (28,9 %) va quyi texnologiyali 35,5 % (39,5 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi 23,8 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi 11,0 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 138,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,8 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 117,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 15,3 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi 6,6 % (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,6 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqarish sanoatida ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2021-yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 27,7 ming tonna mis sim (2020-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 52,5 % ga ko'paygan), 32,5 ming tn paxta iplari (54,8 %.), 16,6 ming tn trikotaj yoki qo'lda to'qilgan matolar (42,7 %), 440,4 ming dona sovutgich va muzlatgichlar (22,7 %), tamaki mahsulotlari 1468,7 mln dona (28,3%) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ishlab chiqarish sanoatida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2021-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oltin gugurt, <i>tonna</i>	235 736,0	218 734,0	-17 002,0
Karobkalar, gofrali qog'oz yoki kartondan idishlar, <i>tonna</i>	17 235,2	1 809,6	-15 425,6
Garmon va antibiotiklardan tashqari dori vositalari, <i>tonna</i>	14 147,1	11 553,1	-2 594,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming t.</i>	100,1	29,9	-70,2
Sovutgich va muzlatgichlar, <i>dona.</i>	358 970,0	440 386,0	81 416,0




**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash
va havoni konditsiyalash**



2020-yil,
% da



2021-yil,
% da



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,6 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (3,9 % ini) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 75,2 % ni tashkil qildi.







**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2021-yil yanvar- oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, <i>mln.kVt/s</i>	262,4	279,8	17,4
Issiqlik energiyasi, <i>ming gkal</i>	9 828,1	9 977,2	149,1
Elektroenergiya uzatish bo'yicha xizmatlar, <i>ming so'm.</i>	725 646,0	675 669,0	-49 977,0



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,5 % ni) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020-yil yanvar-oktabr	2021-yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	57,2	73,6	16,3
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna	357,2	346,0	-11,2
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	128,6	151,2	22,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo'yicha xizmatlar 3,1 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 17,6 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 28,5 % ga o'shish kuzatildi.



Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26,6 trln. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 25,1 % ga o'sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 39,2 % ni tashkil etdi.



2020- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,8 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,3 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarining mos davriga nisbatan 3,6 % ga o'sgan) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Toshkent shahri jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 21,0 % ni shuningdek, Chilonzor tumani 12,3 % ni, Bektemir tumani 10,2 % ni, Olmazor tumani 9,8 % ni, Sirg'ali tumani 9,2 % ni hamda Uchtepa tumani 9,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,5 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (163,4 %), Chilonzor (154,8 %), Bektemir (132,0 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (125,0 %) qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	26 570,0	100,0	125,1
Uchtepa	2 398,0	9,0	106,1
Bektemir	2 697,9	10,2	132,0
Yunusobod	1 158,6	4,4	103,9
Mirzo Ulug'bek	1 408,9	5,3	117,3
Mirobod	1 903,8	7,2	115,5
Shayxontohur	595,1	2,2	85,1
Olmazor	2 602,9	9,8	116,6
Sirg'ali	2 449,6	9,2	104,0
Yakkasaroy	1 544,6	5,8	125,0
Yashnobod	5 589,7	21,0	163,4
Yangihayot	944,5	3,6	104,2
Chilonzor	3 276,4	12,3	154,8

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Bektemir Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib,

26,0 %, shuningdek, Sirg'ali 12,7 % ni, Chilonzor tumani 12,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yangihayot (146,0 %), Bektemir (141,2 %), Yakkasaroy (138,2 %) tumanlarida qayd etildi.



**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021- yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	8 756,7	100,0	109,5
Uchtepa	578,4	6,6	100,6
Bektemir	2 277,8	26,0	141,2
Yunusobod	518,9	5,9	100,6
Mirzo Ulug'bek	292,4	3,3	98,8
Mirobod	241,5	2,8	85,7
Shayxontohur	184,3	2,1	76,5
Olmazor	1 111,9	12,7	102,1
Sirg'ali	1 113,2	12,7	90,8
Yakkasaroy	516,5	5,9	138,2
Yashnobod	707,3	8,1	92,1
Yangihayot	416,9	4,8	146,0
Chilonzor	797,7	9,1	108,7



**Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**
(2021-yilning yanvar-oktabr oylarida)

	Mrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahar	16 673,6	100,0	137,4
Uchtepa	1 819,6	10,9	108,0
Bektemir	418,6	2,5	97,5
Yunusobod	558,8	3,4	106,9
Mirzo Ulug'bek	1 116,4	6,7	123,3
Mirobod	1 662,3	10,0	121,6
Shayxontohur	342,6	2,1	90,0
Olmazor	1 491,0	8,9	130,3
Sirg'ali	1 238,3	7,4	116,5
Yakkasaroy	1 027,8	6,2	119,3
Yashnobod	3 998,1	24,0	224,5
Yangihayot	527,6	3,2	84,9
Chilonzor	2 472,4	14,8	179,5

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shahar jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib, 24,0 % ni, shuningdek, Chilonzor 14,8 % ni, Uchtepa 10,9 % ni, Mirobod 10,0 % ni, Olmazor 8,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Yashnobod (224,5 %), Chilonzor (179,5 %), Olmazor (130,3 %), Mirzo Ulug'bek (123,3 %) tumanlarida qayd etildi.



**Toshkent shahri hududlari kesimida
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

	2021- yil yanvar-oktabr mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	67 727,1	114,4
Uchtepa	4 339,8	104,8
Bektemir	4 800,2	108,1
Yunusobod	3 561,4	98,8
Mirzo Ulug'bek	4 114,4	98,4
Mirobod	6 018,5	106,3
Shayxontohur	4 333,4	117,0
Olmazor	4 507,9	112,5
Sirg'ali	4 946,9	115,2
Yakkasaroy	4 121,5	116,1
Yashnobod	18 394,4	113,4
Yangihayot	2 199,2	107,0
Chilonzor	6 389,4	118,8



Toshkent shahar hududlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da


Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksida kamayish kuzatilmadi, lekin Mirzo Ulug'bek (2020-yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan 98,4 %), Yunusobod (98,8 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada pasayganligini izohlashimiz mumkin.



Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o'sish sur'ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yashnobod (163,4 %), Chilonzor (154,8 %), Bektemir (132,0 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (125,0 %) qayd etildi.



Toshkent shahar jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da




Toshkent shahar sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Yashnobod (shahar sanoat ishlab chiqarish hajmning 27,2 %), Chilonzor (9,4 %), Mirobod (8,9 %), Sirg'ali (7,3%) hamda Bektemir (7,1 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangihayot (3,2 %) hamda Yunusobod (5,3 %) tumanlarga to'g'ri kelmoqda.



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda
kichik biznesning ulushi**
(2021-yil yanvar-oktabr oylarida, % da)

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 23,3 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,0 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 71,0 %), Yunusobod tumanida (54,3 %), Sirg'ali (51,1 %), Chilonzor tumanida (49,7 %), Yangiheyot (46,5 %), Mirzo Ulug'bek (43,7 %), Yakkasaroy (41,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Toshkent shahar hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yashnobod (16,2 %), Shayxontohur (19,7 %) va Mirobod (19,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini
(2021-yil 1-noyabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda Toshkent shahrida 17,0 mingta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 2,3 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,3 %) Olmazor tumaniga, 2,1 mingtasi (12,2 %) Chilonzor tumaniga, 2,0 mingtasi (11,6 %) Uchtepa tumaniga, 1,9 mingtasi (11,0 %) Yunusobod tumaniga, 1,5 mingtasi (8,9 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,4 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga to'g'ri kelmoqda.




2021-yilning yanvar-oktabr oylarida shaharda 1 796 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etildi, shulardan 200 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini hajmidagi ulushi 11,1 %) Chilonzor tumanida, 192 tasi (10,7 %) Olmazor tumanida, 183 tasi (10,2 %) Yunusobod tumanida, 176 tasi (9,8 %) Shayxontohur tumanida, 174 tasi (9,7 %) Uchtepa tumanida, hamda 166 tasi (9,2 %) Yashnobod tumanida tashkil etildi.




**Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari
(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan eng ko'p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 250 ta), Chilonzor (2 066 ta), Uchtepa (1 971 ta), Yunusobod (1 865 ta) hamda Shayxontohur (1 510 ta) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahrida eng ko'p sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 noyabr holatiga ko'ra)



Toshkent shahrida eng kam sanoat korxonalari bo'lgan tumanlar (1 noyabr holatiga ko'ra)



2021-yilning 1-noyabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (542 ta), Yangihayot (608 ta), Mirobod (974 ta), Sirg'ali (1 058 ta), Yakkasaroy (1 296 ta), Yashnobod (1 367 ta) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi
bo'limi**

Tel.: (71) 203-88-16